

O‘QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY MATNLAR USTIDA ISHLASH MAZMUNI VA USULLARI

Mavlonova Klaraxon Mahmudovna,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU

O‘zbek tili va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida professori

Abdijamilova Mahfuza Maxmudovna,

*Nukus davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida
katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

mahfuza@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18338067>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi ta‘lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etayotgan o‘qish savodxonligi tushunchasining mazmuni, mohiyati va uni rivojlantirish yo‘llari, badiiy matnlar orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, anglash va hayotiy tajribaga tayanib xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari ochib berilgan. Shuningdek, Xudoyberdi To‘xtaboyev hamda Arkadiy Gaydar asarlari misolida amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qish savodxonligi, matnni tushunish, o‘qish motivatsiyasi, kontekstual tahlil, ona tili ta‘limi, o‘quvchi kompetensiyasi, o‘qib anglash ko‘nikmasi.

Аннотация. Данной статье раскрываются вопросы содержания и сущности понятия читательской грамотности, которое приобретает особое значение в современном образовательном процессе, а также пути её развития. Кроме того, как один из эффективных методических приёмов, способствующих развитию читательской грамотности на уроках родного языка, описывается метод работы с таблицей, а также приводятся практические рекомендации на примере произведений Худойберди Тухтабоева и Аркадия Гайдара.

Ключевые слова: читательская грамотность, понимание текста, художественный текст, самостоятельное мышление, мотивация к чтению, контекстуальный анализ, обучение родному языку, компетенции учащегося, навыки понимания прочитанного.

Abstract. This article explores the content and essence of the concept of reading literacy, which has gained particular importance in the modern educational process, as well as ways to develop it. Furthermore, as one of the effective methodological techniques that contribute to the development of reading literacy in native language lessons, the table-based method is described, and practical recommendations are provided using the works of Khudoyberdi To‘xtaboyev and Arkady Gaidar as examples.

Keywords: reading literacy, text comprehension, literary text, independent thinking, reading motivation, contextual analysis, native language education, student competencies, reading comprehension skills.

Kirish va dolzarbli. Bugungi kunda o‘qish savodxonligi tushunchasiga shunchaki ta‘limning boshlang‘ich davridagi o‘quvchining harf tanish jarayoni sifatida qaralmaydi. Endilikda o‘qish savodxonligi ancha keng qamrovli tushuncha bo‘lib, bu insonning barcha ma‘lumotlarni aniqlash, tushunish, unga munosabat bildirish va undan foydalanish jarayonidir. “Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash” bo‘yicha qo‘llanmada o‘qish savodxonligiga quyidagicha ta‘rif beriladi: “O‘qish savodxonligi – shaxs o‘zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o‘z o‘rnini

topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir" [1.12.]

Badiiy matnlar badiiy adabiyotda tasvirlangan, voqealar, harakatlar va oqibatlarini o'quvchilarga haqiqiy hayotni yortibgina qolmay, balki ularda tasavvur qilish, sodir bo'lgan vaziyatlarni his qilish va amaliy ko'nikmalarni paydo etishga qaratiladi.

Metodlar va o'rganilish darajasi. Mutaxassislar "bolani ona tili xazinalariga ongli ravishda yetkazish" zarurati, "o'qish tezligi"ni emas, balki "tushunish tezligi"ni rivojlantirish bilan o'lchanishi, bunda mustaqil o'qish mashqlari muhimligi ta'kidlashadi. Shuningdek, M.R. Lvov matnda berilgan turli til hodisalariga boy so'zlarni tizimli qo'llash orqali o'quvchilarda mustaqil ishlash hamda "anglash" ko'nikmalarining shakllanishi haqidagi fikrlarni ilgari surgan [2.25.]

"Har bir o'quvchining qabul qilish qobiliyati har xil bo'lgani uchun matnni bir xilda o'qib chiqqanlar tushunishning har xil darajasida turgan bo'ladi. O'qituvchi ushbu darajalarni yaxshi bilsa, savollar yordamida o'quvchining qaysi darajada turganini aniqlashi, matnni yaxshiroq tushunishi uchun yo'nalish berishi mumkin bo'ladi. Ona tili darsliklaridagi matn bilan ishlash mashqlari ham mazkur nazariy ma'lumotga asoslanishi lozim. Masalan, matnni tushunishning dastlabki darajasi assotsiativ daraja bo'lsa, unda o'quvchida matn mavzusi, matn uslubi va matndagi so'zlarga assotsiatsiyalar yuzaga keladi. Keyingi daraja bu leksik-morfologik daraja bo'lib, bunda o'quvchi matndagi so'zlarni va ularning ma'nosini tushunadi. Uchinchi daraja kontekstual daraja bo'lib, unda so'zlarning kontekstual ma'nolari anglashiladi. Fikrimizcha, matn bilan bog'liq mashqlarda aynan shu uchinchi darajaga ko'proq urg'u berilishi kerak, chunki unda so'zlarning matn ichida qanday ma'noda kelayotgani anglashiladi, demakki, so'zlar alohida birlik darajasidan matn mazmunining tarkibiy qismi darajasiga ko'tariladi" [3.221] Har bir fanning yaxshi o'zlashtirilishi o'quvchining o'qish savodxonligi bilan uzviy aloqador. Shunday ekan, ona tili darslarida uni rivojlantirish uchun unga ta'sir etuvchi omillarni bilgan holda qanday yo'nalishda ish olib borish mumkinligi haqida ayrim tavsiyalarni berib o'tamiz.

O'qish savodxonligini shakllantirishga oid xorijiy yondashuvlar bilan tanishish jarayonida o'qishga bo'lgan motivatsiyani uyg'ota olish, o'qish jarayonining maroqli o'tishini ta'minlash, biror ma'lumotni o'zlashtirish va unga ko'ra, biror amaliy topshiriqni bajara olishga erishish, bolalarga fonetika, akustika, lug'at boyligi, tez o'qish, anglash va mustaqil o'qiy olish bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan turli metodik usullarni ishlab chiqish, kichik yoshdagi bolalarga mustaqil o'qiy olishni o'rganish uchun muayyan vaqt berish, bolalarni yuqori sifatli turli janrlarga oid bo'lgan adabiyotlar bilan ta'minlash, o'quvchining lug'at boyligini oshirishga, unda mavjud tushunchalar va bilimlar bilan bog'liqlikni ta'minlab beruvchi mazmunga ega bo'lgan matnlardan foydalanishga oid samarali tavsiyalar berilgan.

Badiiy matnlar o'quvchilarning nafaqat lug'at boyligini oshiradi, balki nutqini rivojlantiradi hamda mustaqil fikrlashga undaydi. Ertak, hikoya, she'r va rivoyatlar orqali o'quvchilar hayotiy voqealarni, ijobiy va salbiy xatti-harakatlarni farqlashni o'rganadilar, shuningdek, qahramonlar timsolida yaxshilik, halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari. Xudoyberdi To'xtaboyevning "Erkacholning o'rigi" hikoyasi asosida ushbu usuldan foydalanish tartibi haqida so'z yuritamiz. Bunda har bir o'quvchiga quyidagi shakl va mazmunga ega bo'lgan jadval tarqatiladi.

Mening fikrim (o'qishga kirishishdan oldin)	Muhokama uchun	Mening fikrim (matnni o'qib bo'lgach)	Muallifning fikri
	Matn sarlavhasiga e'tibor bering. Chollar ham erka bo'lishi mumkinmi?		
	Matn mazmuni bahorda o'rik ekish jarayoni bilan qay darajada bog'liq bo'lishi mumkin?		
	Bobolar o'z nabiralarni yaxshi ko'radilar, ammo hech qachon otalarning o'rmini bosa olmaydi.		
	"Yaxshidan bog' qoladi" degan xalq maqolini qanday tushunasiz?		
	Insonlar olamdan o'tganlaridan so'ng sekin-asta ular haqidagi xotiralar ham odamlarning yodidan chiqib boshlaydi.		
	Jamiyatda hurmat qozonish uchun yaxshi joyda o'qish, yaxshi kiyinish, boshqalar bilan doimo chiroyli muomalada bo'lish kerak.		

Shundan so'ng o'quvchilar bilan quyidagi tartibda ish olib boriladi:

1. Jadvalning birinchi ustunini mustaqil ravishda to'ldiring. Yozilgan javoblar sinf o'quvchilari va o'qituvchi ishtirokida muhokama qilinadi.

2. Matnni o'qing (ovoz chiqarib o'qish, ichdan o'qish, birgalikda o'qish).

3. Jadvalning uchinchi ustunini mustaqil ravishda to'ldiring. Matnni o'qib bo'lgandan so'ng jadvalning uchinchi ustuni matnda keltirilgan ma'lumotlar asosida to'ldiriladi.

4. Matnni o'qib bo'lganingizdan so'ng sizning nuqtayi nazarangiz o'zgardimi? Nima uchun? Sinf o'quvchilari va o'qituvchilar ishtirokida berilgan javoblar muhokama qilinadi, matn tahlili olib boriladi.

5. Jadvalning to'rtinchi ustunini mustaqil ravishda to'ldiring.

Jadvalning to'rtinchi ustuni har bir o'quvchining mustaqil fikrlari asosida to'ldiriladi. Bunda o'quvchi matnda berilgan gaplar ichidan muallif fikrini anglatuvchi jummalarni, unga ishora qiluvchi birliklarni aniqlay olishi lozim.

6. Sizning fikrlaringiz va muallif fikrlari o'rtasida o'xshashlik bormi? Qaysi fikrlaringiz bir joydan chiqqanini ayting, o'z qarashlaringizni tushuntirishga harakat

qiling. Sinf o'quvchilari va o'qituvchilar ishtirokida berilgan javoblar muhokama qilinadi, kerakli xulosalar chiqariladi.

Ushbu usul o'qib tushunish malakasini shakllantirishda samarali usul bo'lib, undan foydalangan holda o'qish jarayonini olib borish matndagi voqealarga nisbatan o'quvchining munosabati, o'quvchining hayotiy qarashlari nechog'li haqiqatga yaqin ekani, ya'ni voqea-hodisalarni tahlil qilishda hayotiy tajribadan foydalanish bilan bog'liq ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, mazkur usul o'quvchida badiiy matnlar bilan ishlashga oid malakalarni rivojlantirish, yozuvchining mahoratiga oid o'z fikrlarini ifodalay olishga oid muhim ko'nikmalarni shakllantirishda ham ahamiyatli sanaladi [4.217.]

Quyida 2-badiiy matn ustida ishlash uchun o'quv topshiriqlari tavsiya etiladi.

VIJDON

(1) Nina Karnauxova algebradan uyga vazifani bajarmadi, shu sababli maktabga bormaslikka qaror qildi. O'qish payti kitob-daftari bilan ko'chada sayoq yurganini tanish-bilishlar ko'rib qolishidan xavotirlandi. Bildirmay bog' tomon yo'l oldi.

(2) Nonushtali xaltasi va kitoblarini o't-o'lan ustiga qo'ydi-da, chiroyli bir kapalakni quvib ketdi. Kutilmaganda bir bolakayga urildi. U ma'sum va samimiy nigohlarini qizga tikib turardi. Bolakay ichiga daftar solingan alifbe ko'tarib olgandi. Nina gap nimadalgini fahmlab qolganek bolani mazax qila boshladi:

– Voy progulchi-yey! – dedi u jiddiy turib. – Shu yoshdan ota-onang, maktabingni aldashni boshladingmi?

– Yo'q, unaqa emas! – dedi bolakay hayron bo'lib. – Darsga ketayotgandim. Lekin yo'limdan katta bir it chiqib qoldi. U menga qarab hurdi, keyin adashib qoldim.

(3) Nina qoshlarini chimirdi. Lekin shunday yoqimtoy va soddadil bolaga ishonmay bo'lmasdi. Qiz uni qo'lidan ushlab, bog'dan olib o'tib qo'ydi.

Ninaning kitoblari va nonushtasi buta ostida qolib ketdi. Ularni olgani esa bolakaydan uyaldi. Shu payt it shoxlar orasidan lip etib chiqdi-da, nonushtani paqqos tushirdi, kitoblarga qiyo ham boqmadi.

(4) Qiz qaytib kelgach, yerga o'tirib, yum-yum yig'ladi. Yo'q! U nonushtasidan ajralgani uchun yosh to'kkani yo'q. Shundoqqina boshi ustida quvnoq qushchalar yayrab sayrashar, uning ko'ngliga esa qil sig'mas, vijdon azobidan qiynalardi.

Arkadiy Gaydar (Orif Tolib tarjimasi)

Matn asosida savollarga javob bering.

1. Qiz nima uchun bolani maktabga atay bormagan deb o'yladi?

2. Nina va bolakayning nechanchi sinfda o'qishini matndan aniqlash mumkinmi?

Fikringizni asoslang.

3. Sizningcha, qiz yana qanday yo'l tutishi mumkin edi?

4. Agar uyga vazifani bajarmagan bo'lsangiz-u, ustozingiz buning sababini so'rasa, doim rostini aytasizmi yoki bahona ham to'qiysizmi? Javobingizni izohlang.

5. Voy progulchi-yey! – dedi u jiddiy turib. Ajratib ko'rsatilgan so'zga munosabat bildiring. Siz ham nutqingizda shunday so'zlardan foydalanasizmi? Bu to'g'rimi? Nima uchun?

6. Ayting-chi, "ma'sum va samimiy nigoh" deganda nimani tushundingiz?

Quyidagi kichik sarlavhalar qaysi xatboshiga mos kelishini aniqlab, yozing.

<i>Kutilmagan uchrashuv</i>	1
<i>Noqulay vaziyat</i>	2
<i>Vijdon azobi</i>	3
<i>Noto'g'ri qaror</i>	4

"Qiz qaytib kelgach, yerga o'tirib, yum-yum yig'ladi". Qizning ushbu holatga tushishiga sabab bo'lgan omillarni aniqlab, yozing.

Sinfdozlaringiz nutqida "progulchi" ga o'xshash so'zlar uchraydimi? 10 ta shunday so'z topib, uning o'zbek tilidagi muqobili bilan birga yozing.

Ajratib ko'rsatilgan so'zlar o'rniga yana qanday so'zlarni qo'yish mumkinligini aniqlab, ularni xattaxtaga yozing.

–Qiz qaytib kelgach, yerga o'tirib, yum-yum yig'ladi.

–Shu payt it shoxlar orasidan lip etib chiqdi-da, nonushtani paqqos tushirdi, kitoblarga qiyo ham boqmadi.

–O'qish payti kitob-daftari bilan ko'chada sayoq yurganini tanish-bilishlar ko'rib qolishidan xavotirlandi.

Xulosalar. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish malakalarini rivojlantirishda badiiy asar matnlarining mazmuni va ular bo'yicha berilayotgan topshiriqlar o'quvchilarning tilga oid bilimlarini boyitish va mustahkamlashi lozim. Badiiy matnlar asosida tashkil etilgan mashq va metodik usullar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, hayotiy tajribaga tayanib xulosa chiqarish hamda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ona tili darslarida o'qish savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli va maqsadli yondashuv ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassisleri uchun metodik qo'llanma. Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – Toshkent, 2019. – 92 b.
2. Львов М.Р. Методика преподавания русского языка в начальных классах // В.Г. Горещкий, М.Р. Львов, О.В. Сосновская. – М.: Академия, 2012.
3. Azimova I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. Respublika III an'anaviy ilmiy-anjuman materiallari. – Toshkent, 2019. – B. 215–224.
4. Мавлонова К. Она тили дарсларида ўқиш саводхонлигини эгаллаш имкониятлари. Ўзбек тилшунослигини ривожлантиришнинг долзарб муаммолари. Рес.илм.амал.конф. – Toshkent, 2020. – B. 217–224.